

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN LANGUAGE & CULTURE

2022 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rincbosarlar: Zaynobiddin Abdirashidov

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rGANISH kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybullha Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Samixon Ashirboyev

Alisher Navoiy nasriy asarlari matnida gaplarni chegaralashga doir.....6

Baxtiyor Abdushukurov

Alisher Navoiy asarlaridagi etnonimlar.....19

Zulkumor Xolmanova

Omonimlar – tafakkur omili.....30

Sanjar Mavlyanov

O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar.....45

Elyor Xonnazarov

O'zbek tilshunosligida zamonni ifodalovchi grammatik shakllar tasnifi...55

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Tanju Seyhan

Ali Şir Nevâyî ve Kalem.....66

Muhittin Gümüş

Bâbürnâme'nin edebî tür açısından özellikleri.....78

Fan. Ta'lim. Metodika

Dilnavoz Yusupova

"Xamsa" dostonlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish ("Farhod va Shirin" misolida).....89

San'at

Oqilxon Ibrohimov

Nazm va navo xususida.....104

CONTENT

Linguistics

Samikhan Ashirboev

Alisher Navoi's prose text is about limiting sentences.....6

Bakhtiyor Abdushukurov

Ethnonyms in the works of Alisher Navoi.....19

Zulkhumor Kholmanova

Homonyms – a factor of wisdom.....30

Sanjar Mavlyanov

Semantic relations in the system of diplomatic terms of the
Uzbek language.....45

Elyor Khonnazarov

Classification of Grammatical Tense in Uzbek Linguistics.....55

Literature. Translation studies

Tanju Seyhan

Ali Şir Nevâyî and Pen66

Muhittin Kumush

Features of Baburname as a literature genre.....78

Science. Education. Methodology

Dilnavoz Yusupova

Modern technologies and use of methods (in the example
of "Farhod and Shirin").....89

Art

Oqilkhon Ibrohimov

About poetry and melody.....104

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

Alisher Navoiy nasriy asarlari matnida gaplarni chegaralashga doir

Samixon Ashirboyev¹

Abstrakt

Alisher Navoiy asarlarining, xususan, nasriy asarlarining nashr matnlarini tayyorlash murakkab bo'lib, unda nashrga tayyorlovchidan filologiya ilmining barcha sohalaridan xabardor bo'lishni talab qiladi. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimiz vakillarining asarlarini joriydagi alifbo asosida nashrga tayyorlashda, albatta, punktuatsiya asoslarini mukammal bilishi bilan barobar sintaksis bilimlariga ham ega bo'lishi talab etiladi. Shu tamoyildan kelib chiqib, ushbu maqolada Alisher Navoiyning keyingi 30-35 yil ichida nashr (elektron) qilingan matnlarida gaplarni chegaralashda tinish belgilarining qo'yilishi tanqidiy o'rganildi va u bilan bog'liq ravishda matnda gaplarning boshlanishi masalalari ham o'rinni oldi.

Maqolada tanlab olingen Alisher Navoiy asarlaridagi gaplarda tinish belgilarining xato qo'llanishi va munozaraga sabab bo'ladigan o'rinni, uning kelib chiqishi, gaplarning boshlanishida yordamchi so'zlarning ishtiroki kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: matn, gap, nasriy asar, mumtoz adabiyot, tinish belgilar, sintaksis, kiritma konstruksiya, akademnashr.

Kirish

Alisher Navoiy asarlari nashrlarini tayyorlash bilan bog'liq muhim masalalar ham borki, ular yaqin o'tmishda ham, hozir ham o'z muammolaridan qutulgan emas. Asar matnining muallif fikr yo'nalishiga muvofiqligini o'rnatish masalasi bilan bog'liq ravishda hal qilinishi lozim bo'lib turgan dolzab muammo ham mavjud bo'lib, u ham bo'lsa, matnda gaplarni chegaralash va tinish

¹Samixon Ashirboyev – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: samixon.ashirboev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

Iqtibos uchun: Ashirboyev, S. 2022. "Alisher Navoiy nasriy asarlari matnida gaplarni chegaralashga doir". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 6-18.

belgilarini qo'yib chiqishdir. To'g'ri, punktuatsiya qoidalariga ko'ra, har bir tinish belgining qo'llanish o'rni bor [Mahmudov 2015], lekin amaliyotda bu qoidalardan chekinadigan holatlar uchramoqdaki, ular matnni tushunishga va sintaktik shakllarni belgilashga jiddiy xalaqit bermoqda. Bunday noqulayliklar har ikkala yozuvdag'i (k'ril, lotin) matnlarda ham ko'zga tashlanadi. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning nasriy asarlarida gaplarni chegaralash bilan bog'liq holda, tinish belgilarining ko'proq lotin yozuvda tayyorlangan nashrlarda qo'yilishi masalasiga to'xtalamiz.

Ma'lumki, arab yozuvidagi matnni joriy yozuvga o'girishning muayyan muammolari bor. Bular u yoki bu so'zning qanday yozilishi, asardagi paronimlar, turdosh va atoqli otlarning ba'zan farqlanmasligi, ayrim so'zlearning ma'nosini ochiqlash qiyinligi kabi masalalardir. Shu bilan bog'liq ravishda, orfogafik ta'minotdagi buzilishlar yuz berib turadi. Bu muammo ustiga esa tinish belgilar qo'shiladiki, matnshunos oldida yana ko'zda tutilmagan muammo-lar kelib chiqadi.

Tan olish kerakki, tinish belgilarini o'z o'rnila qo'ya bilish hozirgi zamон o'quvchisiga (kitobxoniga) mumtoz adabiyotimiz durdonalarini to'g'ri tushunish uchun eng qimmatli yo'naliшhlar, turkilar beradi. Hozirga qadar akademnashrlar esa bu jihatdan takomillashtirishga muhtojlik sezadi. Shuni eslatish joizki, bu muammo bugun ko'tarilayotgani yo'q, balki avval ham muhokama obyekti bo'lgan edi [Аширбоев 1987, 21], afsuski, Alisher Navoiy asarlarining keyingi nashrlarida ham bu holat o'nglanmaganini ko'rish mumkin. Shu munosabat bilan avvalgi maqolada tilga olingan o'rinalar va ularning keyingi nashrlardagi holati qiyosiy tahlil qilindi. Bu tahlilda sodda gaplarni chegaralash bilan bog'lagan holda, tinish belgilarining qo'yilishiga e'tibor berildi va uni amalga oshirish uchun Alisher Navoiyning "Mahbubul qulub", "Muhokamatul lug'atayn", "Majolisun nafois" va "Tarixi muluki Ajam" asarlarining elektron nashrlari olindi, chunki bu nashrlar omma orasiga keng tarqalgan.

Sodda gaplarning qo'llanish tarixi

Ma'lumki, aksariyat tillarning, xususan, o'zbek tilining qadimgi davrlari uchun sodda gaplarning qo'llanishi xarakterli bo'lgan [Абдураҳмонов, Рустамов 1982, 47], hatto N. Z. Hojiyeva (Гаджиева) ning ko'rsatishicha, qadimgi ozarboyjon tili yodgorliklarida ham sodda gaplar faol bo'lgan [Гаджиева 1963, 14]. Sodda gaplar Alisher Navoiyning nasriy asarlarida ham ko'plab qo'llangan, lekin bunday gaplarni matn ichidan farqlab olish masalasida jiddiy qiyinchiliklarga

duch kelinadi. Bu masalada o'zbek tilshunosligida hozircha bir nazariy yoki amaliy qo'llanma yoki yo'l-yo'riqlar yaratilmagan. Binobarin, yodnomalardagi gaplarning chegarasini belgilash masalasi hamon murakkabligicha qolmoqda. Shu tufayli ham til tarixiga oid ishlarda gaplar orasida bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi so'zlar bo'lмаган gaplarni qo'shma gapga kiritishga moyillik ancha kuchli. G. Abdurahmonov va A. Rustamovning "Qadimgi turkiy til" qo'llanmasida shu tamoyilga amal qilingan [Абдураҳмонов, Рустамов 1982, 53-54]. N.Z. Hojiyeva (Гаджиева) va V.A. Serebrennikovlar esa bu masalaga aniqlik kiritib, mantiqiy jihatdan bir-biriga aloqador bo'lgan gaplarni bitishuv asosida bog'langan sodda gaplar va ularni qo'shma gaplarning eng qadimgi shakli deb yuritadi [Гаджиева, Серебренников 1986, 99; Гаджиева 1973, 156]. Albatta, bu fikr e'tirozga sabab bo'lmaydi, lekin masalaning ikkinchi tomonini, ya'ni har qanday matnda har bir gap mazmun jihatdan bir-biri bilan aloqador bo'lishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Shu ma'noda V.G. Admonining fikri e'tiborga loyiq, uning fikricha, sodda gaplarning mustaqilligi uning nutq kontekstidan mazmun va lug'aviy jihatdan ajralib qolganligini bildirmaydi [Admoni 1955, 211].

Keyingi davrda yozma manbalardagi gap chegarasini aniqlashda bosh o'lchov mantiq, fikr butunligi va gapning sintaktik jihatdan shakllanganligi to'g'risida fikr yuritilmoqda [Содиков 2020, 410]. To'g'ri, bu fikr jiddiy e'tiroz uyg'otmasa-da, ular yanada ochiqlanishga muhtoj. Yuqorida aytiganlarni hisobga olgan holda, o'tmish manbalarini, bu o'rinda Alisher Navoiy asarlarida gaplarning chegaralanishini, y'ani tinish belgilarining qo'yilishini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Matndagi gaplar va uning tarkibiga kirgan sintaktik guruhlarning o'zaro munosabatini belgilashda, albatta, tinish belgilarining roli nihoyatda kattadir. Shu tufayli eski o'zbek tili yodgorliklarini hozirgi (kirill va lotin) yozuvga ag'daruvchilarga juda ulkan mas'uliyat yuklanadiki, bu ham bo'lsa, bu jarayonda gaplarning chegarasini, gapning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi sintaktik butunliklarni belgilash asosida tinish belgilarini o'z o'rnida to'g'ri qo'ya bilishir.

Alisher Navoiy nasriy asarlarida tinish belgilari, asosan, to'g'ri qo'yilgan. Shu bilan birga, noto'g'ri qo'yilgan va ayrim o'rinnarda tinish belilarining qo'yilishini munozara qiladigan hamda tinish belgilari qo'yilmagan joylari ham bor. Ular avvalgi nashrlarda ham, keyingi nashrlarda ham mavjudki, ular muayyan darajada Alisher Navoiyning fikr yuritish tarzini anglashga xalal beradi. Bu fikrlarni

yuqorida ko'rsatilgan asarlar nashri bo'yicha qarab chiqishga harakat qilamiz.

A. N. Kononov "Mahbub ul-qulub" asarining chog'ishtirma matnini tayyorlashda (arab yozuvida, biz uni lotinlashtirilgan variantda berdik) har bir gapning tugashiga ishora qiladigan ko'ndalang romblar qo'yib borgan. Ular aksariyat o'rirlarda gaplarning tugallanishini anglata olgan, masalan: *O'zga mulukning rayosi va xalqi aning orzusida* ♦ *Va yana kishvar mazlumlari aning adl-u duosi guft-u go'sida*. Bu gapda romb nuqta qo'yilgan o'rirlarda to'g'riqo'yilgan. Lekin romb xato qo'yilgan joylari ham bor (ehtimol, ular nashriyot xatosidir): *Andin kechalar atrok zu'fosi ishi argushtak va atfol varzishi* ♦ *oq sungak* [Kononov, 10] iborasida romb *oq sungakdan* oldin qo'yilgan va bu so'z keyingi jumлага qo'shib yuborilgan.

Bir murakkablashgan sodda gapda nuqtalarning ortiqcha qo'yilishi quyidagi gapda yaqqol ko'rindi: *Ishq axtar-i-dur duraxshanda va bashariyat ko'zi nur-u ziyosi andin* ♦ *guhar-i-dur raxshanda, insoniyat tojining zeb-u bahosi andin* ♦ *mehr-i-dur toli', mahzun xotirlar xoristonи andin gulshan* ♦ *va badr-i-dur lomi'*, tiyra *ko'ngullar shabistonи andin ravshan* ♦ *bahr-i-dur vasi'*, har igromi yuz *aql-u xush kemasin cho'murg'an* ♦ *va tog'-i-dur rafi'*, har tig'i ming *zuhdu taqvo boshini uchurgan*, ♦ *shu'la-i-dur so'zanda, xoshoki ko'b jonu ko'ngul bo'lg'an* ♦ *va barq-i-dur furuzanda, ko'b jonu ko'ngul ashi'asi kul qilg'an* ♦ *ajdaho-i-dur xunxor, olamni dam bila tortmoq anga kom* ♦ *podshoh-i-dur qahhor, komi har dam olam ahlig'a qatli om* ♦ *va har necha zulm qilg'an sayi anga usonmoq yo'q* va *har necha qon qilg'an sayi anga qonmoq yo'q* ♦ *soiqa-i-dur aql-u din xirmanin kuydurguchi* ♦ *va sarsar -i-dur alarning kulin ko'kkasovurg'uchi* [Kononov, 90]¹.

Bu asarning internetdagি variantida ham *mehr-i-dur, bahr-i-dur, shu'la-i-dur, ajdaho-i-dir, soiqa-i-dur* kesimlaridan oldin hamda *va har necha zulm* iborasi bilan boshlanadigan kiritma konstruksiyadan oldin ham nuqta qo'yilganki, ushbu gapdagi uyushiq kesimlar hamda kiritma konstruksiyalarning qo'llanishi matnning tayyorlovchisini chalg'itgan. Aslida, bu gapdagi uyushiq kesimlar orasiga vergul qo'yishning o'zi kifoya edi. Yuqoridagi kabi hollar asarning oltinchi, sakkizinchи, o'n uchinchi, o'n to'rtinchi va boshqa fasl, boblarida ham qayd qilinadi.

Murakkab qo'shma gap tarkibidagi gaplar o'rtasiga nuqta qo'yilgan: *Chun* [Абдураҳмонов, Шукуров, Маҳмудов 2008, 441]

¹"Yoye ishorat" belgisini ajratib ko'rsatdik – A. S.

mulukdin ba'zi aqolim va kishvarda sort salotini mustaqil bo'ldilar, ul munosabat bila forsiygo'y shuaro zuhur qildilar. Qasidada Xoqoniy va Anvariyl va Kamol Ismoil va Zahir va Salmondek va masnaviyda ustoz fan Firdavskiy va nodiri zamon Shayx Nizomiy va joduyi hind Mir Xusravdek va g'azalda muxtarii vaqt Shayx Muslihiddin Sa'diy va yagonai asr Xoja Hofiz Sheroyiydekki, bularning ta'rifi yuqoriroq chun shammai surulupdur va vasflarig'a qalam urulupdur. So'zni uzotmoq hojat emas va kalom tatvilin ma'ni ahli mustahsan demas (21, bu asarning lotin alifbosidagi elektron matni to'plamda berilmagan).

Ma'lumki, eski o'zbek tilida fors tili sintaktik strukturasiidan kalkalangan iboralar, gaplar anchagina. Bunday gaplar Alisher Navoiy nasriy asarlariga ham xosdir [Borovkov 1946, 97]. Yuqoridagi gap ham fors tili sintaksisi ta'sirida shakllangan murakkab qo'shma gapdir. Buni gapning payt va sabab bog'lovchisi *chun* bilan boshlanganligidan ham bilish mumkin. Murakkab qo'shma gapni tashkil qiluvchi ikkinchi gapda *forsigo'y shuaro* (ega)ni izohlab keladigan "*qasidada Hoqoniyya Anvariyl va Kamol va Zahir va Ismoil va Salmondek va masnaviyda ustoz fan Firdavsiy va nodiri zamon Shayx Nizomiy va joduyi hind Mir Xisravdek va g'azalda muxtarii vaqt Shayx Muslihiddin Sa'diy va yagonai asr Xoja Hofiz Sheroyiydek*" ajratilgan bo'lagi bilan qo'llangan. Matnda o'sha ajratilgan bo'lakdan oldin nuqta qo'yilgan, vaholanki, *forsigo'y shuaro zuhur qildilar* konstruksiyasidan so'ng uyushiq ajratilgan bo'lakning mavjudligini ko'rsatish uchun ikki nuqta qo'yilishi maqsadga muvofiq edi. Shuningdek, shu ikkinchi gapga aloqador *bularning ta'rifi yuqoriroq chun shammai suruluptur va vasflariga qalam uruluptur* kiritma gapidan keyin ham nuqta qo'yilganki, natijada bu ergash gap *so'zni uzotmoq hojat emas va kalom tatvilin ma'ni ahli mustahsam demas* bosh gapidan ajralib qolgan. Bu o'rinda nuqta emas, balki vergul qo'yilishi o'zbek punktuatsiyasi asoslariga muvofiq kelar edi va hozirgi zamon o'quvchisiga matn yanada tushunarliroq bo'lar edi.

"Tarixi muluki ajam" asarining elektron nashrida ham ayrim munozarali o'rinalar uchraydi. "Tarixi muluki ajam"da Eron shohlari oldinma-keyin tartib bilan keltirilib, ularga xos bo'lgan fe'l va voqealar ta'riflanadi. Bu asarning ayrim o'rinalarda podshohlarning nomini bildiradigan so'zlar keyingi sintaktik birlikka nisbatan atov gap bo'lib kelgan va ulardan so'ng nuqta qo'yilib borilgan. Masalan, *Yalosh binni Bahrom. Ul dag'i otasig'a valiahd erdi va podshohlig'i o'n besh yil erdi* [Navoiy (e), 12]. Aksariyat o'rinalarda podshohlarning nomlarini anglatgan so'z bevosita gap strukturasidagi boshqa so'zlar bilan sintaktik jihatdan bog'lanadi. Masalan, *Manuchehr Erajning*

qizining o'g'li erdi (4). *Navdar Manuchehrning o'g'lidir* (4). Shu bilan birga, ayrim o'rirlarda shunday sintaktik bog'lanishga ega bo'lgan so'zdan so'ng nuqta qo'yilgan: *Bahrom binni Shopur. Otasining vasiyati bilan ota taxtini bildi* (12). *Hurmuz binni Yalosh. Otasig'a qo'immaqom bo'ldi* (12). Aslida, bunday o'rirlarda hech qanday tinish belgiga hojat yo'q edi. Yuqoridagi kabi hollarda nuqta va chiziqchanning qo'llanilishi, ehtimol, o'sha podshoh yoki shaxs nomining ajralib turishiga ishora uchun qo'yilgan bo'lishi mumkin, shunday bo'lganda ham, tinish belgilardan emas, balki asarda qo'llanganidek qalin harflar va boshqa imkoniyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Asarda shunday sintaktik butunliklar mavjudki, ularda tinish belgilarinining qo'llanishi munozaraga sabab bo'lishi mumkin. Jumladan, *Afrosiyob. Ani debturlarkim, Pushang binni Tur binni Faridun o'g'lidur. Va ba'zi aning nisbatin Qayumarsg'a yetkurubuturlar. Ammo burung'i durustroqdir. Chun Navdarni o'Iturdi, Eron mulukini andoq buzdiki, oz yerda ma'murliq qoldi, yig'ochlarni kesti va imoratni yiqti va korizlar bila bulog'larni ko'mdi* (4). Bu sintaktik butunlikda 4ta nuqta qo'yilgan. Bir tomonidan qaraganda, ular matnning tushunilishihech qanday putur yetkazmagandek ko'rindi, lekin sintaktik nuqtayi nazardan qaralsa, bu gaplarning birinchisidagi *ani debturlarkim, Pushang binni Tur binni Faridun o'g'lidur va ba'zi aning nisbatin Qayumarsg'a yetkurubuturlar, ammo burung'i durustroqdir* konstruksiyalari kiritma konstruksiyalar bo'lib, gapning yadrosini *Afrobsiyob chun Navdarni o'Iturdi, Eron mulukini andoq buzdiki, oz yerda ma'murluq qoldi: yig'ochlarni kesti va imoratni yiqti va korizlar bila bulog'larni ko'mdi* konstruksiysi tashkil qilishi ma'lum bo'la-di. Shuning uchun ham, *Afrobsiyob* so'zidan so'ng nuqta emas, balki vergul qo'yib, undan keyingi kiritma konstruksiyalarni ham vergul bilan ajratish lozim bo'ladi yoki kiritma konstruksiyalar ikki tomon dan chiziqcha qo'yilsa ham, tinish belgilari qoidasiga to'la amal qilingan bo'lar edi, muhimi, yuqoridagi sintaktik butunlikning murakkab strukturali bir gapdan tashkil topganligi ma'lum bo'ladi.

Matnlarda bir o'rinda uyushiq bo'lakli gaplarda gap bo'laklari inversiyasi bilan bog'liq ravishda vergullar xato qo'yilgan. Matnni aynan keltiramiz: *Va aning osoridin Firuzosordur Ray navohiyida va Ravshan Firuzdur. Jurjonda va Rom Firuzdur - Hindistonda va Isfahonning yangi shahridur va Shod Firuzdur Ozarbayjonda va Kom Firuzdur Forsda va Xo'jandda bir devor tortibdur. Ba'zi ellik yig'och debturlar, iki viloyatning fosili va ba'zan ortuq va uksuk ham debturlar* (22). Bu matnni ham sintaktik jihatdan rekonstruksiya

qilish lozim bo'ladi. Uyushiq bo'laklarning qo'llanilishi hamda **va** bog'lovchisining takrorlanib kelishi, akademnashrdagi jiddiy matniy noaniqliklar tufayli kesim-to'ldiruvchi inversiyasi tekstda gaplarning chegarasini belgilashda chalkashlikning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bu matnni ikki sintaktik butunlikka ajratish mumkin:

1. *Va aning osoridin Firuzosordur Roy navohiysida va Ravshan Firuzdur Jurjonda va Rom Firuzdur Hindistonda va Isfahonda, Yangi shahridur va Shod Firuzdur Ozarbayjonda va Kom Firuzdur Forsda.*

2. *Va Xo'jandda bir devor tortibdur, ba'zi ellik yig'och debturlar, ikki viloyatning fosili va ba'zan ortuq-o'ksuk ham debturlar,* chunki ularning birinchisi passiv tarkibga, ikkinchisi esa faol tarkibga ega bo'lgan gaplardir.

"Majolisun nafois" nashri haqida quyidagilarni aytish mumkin:

1. Aksariyat o'rnlarda o'zbek tili punktuatsiya qoidalariga xilof ravishda matnda shoir yoki yozuvchini anglatadigan, gapda ega vazifasini bajaruvchi so'zdan keyin chiziqcha qo'yib borilgan. Masalan, *Mir Maxdum – Hazrati Mir Qosimga xalifa va farzand va mahbub masobasida erdi. Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy (quddisa sirruhu) - kibori avliyodindur.*

Ma'lumki, ega va kesim o'rtasida chiziqchaning qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'rnlar ham bor, lekin kesim to'la shakllanganda (fe'l bilan ifodalanganda, unda shaxs-son, zamon ma'nolari angashilganda) ega bilan kesim orasiga hech vaqt chiziqcha qo'yilmasligi barchaga ma'lum. Chiziqchaning qo'llanilishi ega vazifasini bajaruvchi shoir va yozuvchi nomining ajratib ko'rsatilishi uchun qo'llangan deb izohlash ham mumkin bo'lar, lekin akademnashr hozirgi zamon o'quvchisi uchun mo'ljallanganligini hisobga olganda, bu matn ham hozirgi o'zbek punktuatsiya qoidalariga asoslanishi shart bo'lib qoladi.

2. Bir umumiyl gap yadrosiga ega bo'lgan sintaktik matnlarda dastlabki kesim bo'lagi ega yoki ega tarkibi bilan berilgan holda, boshqa kesimlar alohida gap sifatida berilib, har biridan so'ng nuqta qo'yilib borilgan. Masalan, *Mavlono Malik – Boxarz viloyatida Korizdindur. O'zin Malik Zavzan avlodidin tutar. Bu jihatdin Malik taxallus qilur. O'ttiz yoshqa yaqing'acha nazm aytmaydur erdi. Ulg'ayg'anda nazmg'a mashg'ul bo'ldi* (50). *Mavlono Fazliy - Hiriylqidur. Kichik erkanida naqqoshlik qilur erdi va nazmg'ina ham aytur erdi. O'zin tamom shoir xayol qilg'andan(din) so'ngratamomi naqqoshlikni tark qilib, shoir bo'ldi* (57).

To'g'ri, nuqtadan keyingi har bir gapni bir bosh bo'lakli gap

sifatida qarash ham mumkindek ko'rindi, shunday deb faraz qilin-ganda, bir bosh bo'lakli gapni sun'iy ravishda hosil qilgan bo'lamiz. Vaholanki, ega aniq bo'lgan sintaktik sharoitda keyingi kengaygan holda kelgan kesimlarni alohida gap sifatida sanash maqsadga mu-vofiq emas. Ayni o'rinda matndagi gaplarni chegaralash chog'ida bir bosh bo'lakli gaplar ham qayd qilinadi. Bu quyidagi matnda ko'rindi: *Mavlono Abdulvahhob - Isfaroyindindur. Abdolvash kishi erdi. Ammo yaxshi tab'i bor erdi. Sabzaborda qazo mansabini anga bergandurlar. Andin so'ngra Isfaroyinda qozi bo'lg'ondur. Andin ma'zul bo'lg'onda Astroloboda ixtisob amrin anga ruju' qilib yubordilar. She'rg'a mash'uf erdi* (27). Mazkur misoldagi *Sabzavorda qazo mansabini anga ber-gandurlar. She'rg'a mash'ruf erdi* gaplari, haqiqatan ham, bir bosh bo'lakli gaplardir. Shu tufayli ular orasiga nuqtaning qo'yilishi to'g'ri deb topamiz, lekin undan oldingi nuqtalar o'rinsiz qo'yilgan.

3. Grammatik jihatdan mustaqilligi saqlangan gaplar orasiga nuqta qo'yilmagan va ba'zan qo'shma gap tarzida berilgan: *Va shayx-ning qabri ham Isfaroyinda o'z maskanida-o'qdurur va Hoji Avhad Mustavfiykim, fazoyili sharhdin mustag'niydur, Shayxning vafoti ta-rixin "Xusrav" lafzi topibdur* (5). *Xoja Mansur - Jurjon mulukidindur va bitikchi qavmidindur, filvoqe'ki, ul qavmda andin odamivashroq va insoniyatliqroq kishi yo'qtur* (61). Matnda shu tarzda aks etgan bu ikki gapni to'rtta mustaqil gaplarga ajratish lozim bo'ladi: 1) *Va shayxning qabri ham Isfaroyinda, o'z maskanida-o'qdurur;* 2) *Va Hoji Avhad Mustavfiykim fazoyili sharhdin mustag'niydur;* 3) *Xoja Mansur Jurjon mulukidindur va bitikchi qavmidindur;* 4) *Filvoqe'ki, ul qavmda andin odamivashroq va insoniyatliqroq kishi yo'qtur.*

4. Eski o'zbek tili, xususan, Alisher Navoiy asarlaridagi fe'l shakllarining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ayrim o'rinalarda tinish belgilaringin noto'g'ri qo'yilishi matn mazmunini anglab yetishga to'sqinlik qiladi. Bu quyidagi kabi o'rnlarda ko'zga tashlanadi: *Sababin so'ruldi, ersa obodong'ina javob aytmadni* (45). *Andin so'ruldi, ersa bu iborat bila takallum surdikim, "barot namenavisad"* (76). Keltirilgan jumlada vergul *ersa* so'zidan keyin qo'yilishi kerak edi, ya'ni bu o'rinda *so'ruldi ersa* analistik shakldagi shart mayli fe'li [Щербак 1962, 163; Shukurov 1974, 75] ekanligini e'tiborga olish joiz bo'ladi, ya'ni *ersa* so'zikirish so'zi emas.

Alisher Navoiy nasriy asarlari matnining tushunarliligi ta'minlashda tinish belgilari bilan birga gaplarning boshlanishi haqidagi bilim va amaliyotning ham ahamiyati muhim bo'lib turibdi. Bu masala ham bugun ko'tarilayotgani yo'q, balki bu haqda o'zbek tilshunosligida dastlab G'. Abdurahmonov [Abduraxmanov, 1960,

21], ozarbayjon tilshunosligida H. Mirzazoda [Mirzəzadə 1968, 97] tomonidan tilga olingan bo'lsa ham, hozirgi akademnashrlarda bu masalaga jiddiy e'tibor berilayotgani yo'q. Alisher Navoiy nasriy matnlarini tahlil qilar ekanmiz, undagi gaplarning hozirgi o'zbek tilidagidek deyarli barcha o'rinalarida ot va boshqa mustaqil so'zlar bilan emas, balki yordamchi so'z turkumlariga xos so'zlar bilan ham boshlanganini ko'ramiz. Alisher Navoiy nasriy asarlarida ham gaplar bog'lovchilar bilan boshlangan.

Va bog'lovchisi

Bu bog'lovchi bilan sodda gaplar ham boshlangan. Bu ayniqsa "Muhokamatul lug'atayn" asarida yaqqol ko'zga tashlanadi: *Va tushlafzida ham bu nav' uch ma'ni bor. Va yana yon lafzida va yoq lafzida ham bu holdur* (7). **Va** bog'lovchisi bilan gapning boshlanishi, aftidan, eski o'zbek tiliga xos bo'lgan, xususan, "Boburnoma"-da ham buni ko'rish mumkin, lekin ushbu asar sintaksisi bo'yicha tadqiqot ishi olib borgan X. Nazarova gap boshida qo'llanayotgan **va** bog'lovchisining har bir uyushiq bo'lak oldidan takrorlanishi bilan bog'laydi: *Va Mu'min atka va Rustam turkman, va Mulla Mahmud va Ali atka, va Muhammad Sulton Mirza va Odil Sulton va Abdulaziz miraxo'r va Qutlug' qadam qarovul va Muhammad Ali jon-jon va Shoh Husayn Barakiy va mo'g'ul G'anchi qo'l urushqa qo'yib, sobit qadam bo'ldilar* [Nazarova 1979, 67]. Aslida **va** bog'lovchisining gap boshida qo'llanishi uyushiq bo'laklar bilan bog'liq emas, chunki gap boshida **va** bog'lovchisi qo'llangan gaplarning aksariyatida uyushiq bo'laklar ishtirok etmagan, buni yuqorida Alisher Navoiy nasridan keltirilgan misolar ham ko'rsatib turibdi, X. Nazarovaning o'zi ham bunday gaplarni qayd qilgan: *Va kichik xon dadamni(-ga affaksi o'rnida- A.S.) ko'runush qildim* [Nazarova 1979, 47]. **Va** bog'lovchisining gap boshida qo'llanishi esa matndagi oldingi fikrning keyingi gapda davom etayotganligini anglatadi.

Alisher Navoiy asarlarini nashrga tayyorlashda **va** bog'lovchisining bu xususiyati ba'zi o'rinalarda hisobga olinmagan, masalan: *Ammo har qaysining zikrida tavzil qilibtur. Hisob qilg'an kishi topar va muluki tavoyifni ba'zi to'qson kishi debturlar va ba'zi ellik kishi va ba'zi ham bulardin ortuq-o'ksuk debturlar, valilmu indollohiy* (13). Bu matndagi *Va muluki tavoyifni ba'zi to'qson kishi debturlar va ba'zi ellik kishi va ba'zi ham bulardin ortuq-o'ksuk debturlar, valilmu indollohiy* mustaqil gapdir. Ko'rinaridiki, shu o'rinda **va** bog'lovchisi nashruga tayyorlovchini chalg'itgan. Aslida u gapning boshida kelmoqda.

Ammo bog'lovchisi

Bu bog'lovchi qo'llangan gap yirik sintaktik butunlik (matn) tarkibiga kirib, o'sha matn mazmun planining oldingi matn mazmun planiga zid ekanligini bildiradi: *Bu nav' juft kishiga qovushsa, bal-ki mundoq komgorliq ilikka tushsa, nihoniy g'am va mehnatda ham-roz-u hamdaming bo'lg'ay va mahfiy va pinhon dard-u mashaqqatqa damsoz-u mahraming bo'lg'ay, ro'zgordin har jafo yetsa, anising ul va charxi davvordin har ibtilo kelsa, jalising ul, ko'ngling g'amidin ul g'amnok va badaning za'fi malolatidin ul halok.* Agar husn-u jamoli o'rtta chog'lig'dir va muofaqati rishtasi muxolifatqa bog'lig'dur, xavf-u rijo bila tirilmakdur va hikmat-u mador bila maoshin bilmakdur. Kadx-udoning ba'zi mushkuli bo'lsa, osondur, **ammo** ko'prak holida ko'ngul harasondur. *Bu nav'ni ham nofarjomliq va nokomliq bila tahammul qilgay va har nechuk bo'lsa, o'tkargay matnidan so'ng keyingi matn **ammo** bog'lovchisi bilan bog'lanadi:* *Ammo, nauzabilloh, nosoz juft muhlik marazdur. Oshkor-u nuhfati solita bo'lsa, ko'ngul andin ranj va qabiha bo'lsa, abushqa ko'ngli andin yaralig', yomon islik bo'lsa, erga ondin yuz qaroliq, mayxora bo'lsa, uydin obodlig' bartaraf, bad-kora bo'lsa, andin baytul-lutf* (23).

Haqiqatan ham, **ammo** bog'lovchisi Alisher Navoiy asarlarida ikki yirik sintatik butunlikning bir-biriga zid munosabatini bildirgan. Shu bilan birga, adib fikrining ketma-ketligini, izchilligini ta'minlagan hamda keyingi matn mazmunini ta'kidlash maqsadini amalga oshirgan. To'g'ri, gap boshida kelgan **ammo** so'zi modal so'z vazifasini ham bajargan o'rirlari ham bor: *Ammo, bu toifani haq taolo noqisi vojib yaratibdur va kamol-u rostlig'ni zotlaridin havotib-dur* (26). Bu gaplarni **ammo** bog'lovchisisiz ham boshlash mumkin, lekin gapdan kuzatiladigan modallik to'la namoyon bo'lmasligi mumkin.

Yana funksional bog'lovchisi

Bu so'z **va** bog'lovchisi bajargan sintaktik yukni tashiy olgan: *Yana ba'zi lafzg'a bir "lom" ilhaq qilurlarkim, ul shayning ul sifatda rusuxig'a dalolat qilur...* (11). **Yana** so'zi **va** bog'lovchisi bian kuchay-tirilgan o'rinalar ham qayd qilinadi: *Va yana yon lafzida va yoq lafzida ham shu holdur* (7). Ba'zi gaplarda va bog'lovchisini **dag'i** bog'lovchisi almashtirgan: *Yana dag'i rasoilga qalam surupmen...* (14).

Chun bog'lovchisi

Bu bog'lovchi gapning turli pozitsiyalarida kela olishi ilmiy adabiyotlarda asoslangan [Rahmatov 2008, 7]. Uning gap boshida

kela olishi shu sabab bilan bog'langandir: *Chun bu tariqda himmat oliy erdi va tab' bebok va louboliy, o'targa qo'yamadi va tomoshasidin to'yamadi* (12).

Xulosa

Bu maqolada nashr tekstlarida tinish belgilarining barcha o'rnlarda qo'llanishiga o'z munosabatimizni bildirish maqsad qilib qo'yilmagan, balki tinish belgilarining hozirgi qoidalarimizdan chekingan o'rnlariqagina to'xtaldik, ba'zi munozarali masalalariga o'z munosabatimizni bildirdik, xolos. Shuni ta'kidlash lozimki, matn-shunoslar va nashr ishlari bilan shug'ullanuvchilar oldida hozirgi o'zbek tili punktuatsiyasi asoslariga amal qilishdek va matn sintaksi qoidalarini o'zlashtirishdek vazifa turadiki, bu Alisher Navoiy asarlarining qayta nashrlarini yaratishda foydadan holi bo'lmaydi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий (а). *Мұхқаматул луғатайн* (электрон нашр). www.ziyouz.com kutubxonasi.
